



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
NAVOIY VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI BOSHLIC'INING
B U Y R U G'I

27.08.2024

154-um-son

**Yuqori turuvchi tashkilotlarning ko'rsatma va topshiriqlari ijrosini
ta'minlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni hamda Adliya vazirining 2024-yil 19-iyuldagagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida davlat xaridlarini amalga oshirishni tartibga solish to'g'risida"gi 234-um-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida.

B U Y U R A M A N:

1. Adliya vazirining 2024-yil 19-iyuldagagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida davlat xaridlarini amalga oshirishni tartibga solish to'g'risida"gi 234-um-son buyrug'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Buyruqqa asosan quyidagi me'yoriy hujjatlar tasdiqlanganligi inobatga olinsin:

Adliya organlari va muassasalarida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish reglamenti;

Adliya organlari va muassasalarida tashkil etiladigan tanlash (tender) o'tkazish bo'yicha xarid komissiyalari to'g'risidagi nizom;

Adliya organlari va muassasalarini tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini tekshirish jarayoni bo'yicha yo'riqnomasi;

3. Buyruq bilan Adliya vazirining 2020-yil 19-martdagagi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida davlat xaridlarini amalga oshirishni tartibga solish to'g'risida"gi 64-um-son, 2020-yil 28-oktabrdagi "Adliya organlari va muassasalarida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 204-um-son hamda 2020-yil 28-oktabrdagi "Vazirlik markaziy apparati ehtiyojlari uchun xarid qilinayotgan Tovar (ish, xizmat) buyurtmaga muvofiqligi darajasini o'rGANISH haqida"gi 206-um-son buyruqlar o'z kuchini yo'qotgan deb topilganligi inobatga olinsin.

4. Navoiy viloyat adliya boshqarmasimning tanlash (tender) o‘tkazadigan xarid komissiyaning tarkibi 1-ilovaga, ehtiyojlari uchun xarid qilinayotgan tovarlarni (ish, xizmat) qabul qilish komissiyasining tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Adliya boshqarmasi tomonidan tashkil etiladigan har bir tanlash (tender) o‘tkazish yakuni bo‘yicha xarid komissiyasi a’zolariga byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan ish joyi bo‘yicha lavozim maoshining 25 foizigacha miqdorida ustama tayinlab borilishi inobatga olinsin.

6. Adliya boshqarmasi boshlig‘ining 2022-yil 18-sentabrdagi “Boshqarma ehtiyojlari uchun xarid qilinayotgan tovar (ish, xizmat) buyurtmaga muvofiqligi darajasini o‘rganish haqida”gi 222-um-son, 2022-yil 2-dekabrdagi “Navoiy viloyat adliya boshqarmasining xarid komissiyasini shakllantirish to‘g‘risida”gi 296-um-son buyruqlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

7. Rejalashtirish va nazorat-tahlil sho‘basi (Sh.Abduraxmonov) ushbu buyruqni boshqarmaning manfaatdor tarkibiy bo‘linmalari e’tiboriga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’milnsin.

8. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Asos: Adliya vazirining 2024-yil 19-iyuldagagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida davlat xaridlarini amalga oshirishni tartibga solish to‘g‘risida”gi 234-um-son buyrug‘i.

Boshqarma boshlig‘i



U.ABDULLAYEV

Navoiy viloyati

Kiritildi:

Bosh maslahatchi

SH.RAVSHANOV



Kelishildi:

Boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari

D.XUSANOV



Sho‘ba boshlig‘i

A.QULMURODOV



Buyruq bilan tanishdim

A.KOBILOV

SH.ABDURAXMONOV